

**IBTIDOIY JAMOA DAVRI TASVIRIY SAN'ATINING YOSHLAR
TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**

Mirsoatova Laylo O'tkir qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati"
yo'nalishi 2-kurs magistranti
laylomirsoatova98@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada butun uzluksiz ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirishda tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini tatbiq etishning ahamiyati va unda tyutorning o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, aqliy kamoloti, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish orqali talabalarni bilim olishga, kasbiy faoliyatga qiziqtirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda aniq natijalarga erishish yo'llari tadqiq qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda tashkil etishda tasviriy san'at o'qituvchisi va murabbiy o'rnidagi tyutorning imkoniyatlari ilmiy tomondan asoslab beriladi.

Kalit so'zi: pedagogika, klasster hamkorlik, tasviriy san'at, tarix, ijodiy yondashuv, innovatsion 3D texnologiyalar,

Qoyatosh rasmlari - g'orlar (devor va shiplari), qoyatoshlar va alohida toshlarga ishlangan qadimiy tasvirlar. Rasmlar ishlanish xususiyatlariga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: tosh, temir, po'lat yoki boshqa qattiq buyum bilan urib cho'kichlash, chizish, tirnash, ishqalash yo'li bilan yaratilgan rasmlar (ular fanda petrogliflar deb ataladi) hamda tabiiy bo'yoq - oxra va boshqa bilan chizib ishlangan oq, qora, sariq, ko'k, qizil, jigarrang rasmlar. Rangli rasmlarning ishlanish usuli u qadar murakkab emas, lekin petrogliflarning ishlanishi ancha murakkab. Qoyatosh rasmlari ishlanish uslubiga ko'ra xilma-xildir: soya, oddiy chiziqlar, tarhli, naqshdor bezakli va boshqa uslub xususiyatlariga ega. Qoyatosh rasmlari dunyoning barcha joylarida ma'lum bo'lib, paleolitdan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrda yaratilgan. Afrika (Sahroi Kabir va jan. tog'larda), Amerika (Alyaska, And va boshqa tog'lar), Yevropa va Avstraliyaning tog'liq hududlarida ko'p uchraydi; Rossiya (Amur, Lena, Yenisey, Ob, Irtish, Baykal ko'li sohillari), Qozog'iston, O'rta Osiyo (Qoratog', Bo'kantog', Tomditog', Tyanshan. Pomir, Nurota va boshqalar)dan topilgan petroglif qoyatosh rasmlari diqqatga sazovor. Fransiya, ispaniya, Italiya, Hindiston, Rossiya (Lena, Amur, Baykal ko'li sohillari, Ural, Dog'iston), O'zbekiston (Zarautsoy rasmlari, Sangijumon, Oqsoqolotasoy rasmlari)da rangli Qoyatosh rasmlari topib o'rgailgan. Qoyatosh rasmlari avvalo san'at obidasi sifatida san'at tari-xini o'rganishda, arxeologik va tarixiy manba sifatida ibtidoiy va qadimiy qabilalarning ijtimoiy hayoti va ruhiy

olamini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Yana Sarmishsoy qishlog'idagi rasmlar, Suratlisoy rasmlari, Takatosh rasmlari, Xojikent rasmlari.

Bugungacha Markaziy Osiyo mintaqasida 1300 dan ziyod qoyatosh suratlarining manzili aniqlangan va hisobga olingan. Ulardan 250 ga yaqini O'zbekiston hududida joylashgan.

Qizildara darasi Tyan-Shan tog' tizmasining g'arbiy etaklarida, Angren shahridan 15 km shimoli-sharqda joylashgan. U Katta Soy paleolit manzilidan sharqqa tomon ko'tarilib, taxminan 9 km yurgandan so'ng g'arbdagi Ertosh soyga olib boruvchi dovonda tugaydi. Dara 1600 dan boshlanib, dengiz sathidan 3400 metr balandlikka ko'tariladi va dovonga to'qnash keladi. O'rganilayotgan hudud ma'muriy jihatdan Toshkent viloyati, Ohangaron tumaniga tegishli bo'lib, so'nggi yillarda tadqiqotlar bu hududda O'zR FA Milliy arxeologiya markazining ilmiy xodimlari tomonidan olib borilmoqda.

2021-yilgi mavsumdagi dala ishlari davrida jami 395 ta panel hujjatlashtirildi. Hujjatlashtirish ishlari elektron taxeometr stantsiyasi hamda qo'l GPSdan foydalanilgan holda olib borildi. Ish jarayonida 50 ta panelning 3D modellarini yaratishga qaror qilindi.

Hozirda olingan natijalarni qayta ishlash va sharhlash davom etmoqda. Shunga qaramay, dala inventariga asoslanib, hujjatlashtirilgan petrogliflar soni 2000 dan ortiq deb baholandi. Hujjatlashtirilgan panellarning ba'zilarida faqat bitta tasvir, ba'zilarida bir necha o'nlab, hatto bir holatda 200 dan ortiq tasvirlar mavjudligi aniqlandi.



Qayd etilgan tasvirlar orasida eng keng tarqalgani Sibir echkisi (*Capra sibirica*) hisoblanadi. Shu bilan birga, asar davomida boshqa shoxli hayvonlar, jumladan, kiyiklarning tasvirlari, baqtriyaliklar tasvirlangan petrogliflar, odam qo'l izlari, g'ildirakli vositalar va boshqa tasvirlar qayd etilgan. Rasmlarga qarab o'sha davrlarga oid madaniyat va landshaftiga bog'liq manzaralar aks ettirilgan, degan xulosa berish mumkin.

Chotqol tog' tizmasida aniqlangan yangi qoyatosh rasmlari tadqiqoti asosida insoniyat tarixiy taraqqiyotining bronza, ilk temir, antik, o'rta asrlar davrida ushbu hududda yashagan ovchi va ko'chmanchi dasht chorvador xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, diniy va xo'jalik hayotini o'rganish hamda Vatanimiz tarixi va madaniyatida tutgan o'rni masalalarini o'rganishdan iborat.

Qizildarada hujjatlashtirilgan petrogliflarning yoshi bronza va temir davri ekanligi oldindan aniqlangan. Biroq, tasvirlar orasida albatta zamonaviy tasvirlarni ham kuzatish mumkin.

Qizildara qoyatosh suratlari dengiz sathidan 1600 - 3100 metr balandlik oralig'ida uchraydi. Bu qadimdan insoniyat tomonidan baland tog'lik hudud landshaftlari keng o'zlashtirilganligidan dalolat beradi.

Qizildara darasi o'zining noyoblighi shu paytgacha bu hududda noma'lum bo'lgan ko'plab juda boy petrogliflar to'plami bilan o'ziga xos hisoblanadi. 2021-yilda qo'llanilgan usullar nisbatan qisqa vaqt ichida katta maydonni o'rganish va barcha topilgan tasvirlarni hujjatlashtirish imkonini berdi. Barcha petrogliflarning hujjatlashtirishi ularni fasllar oralig'ida raqamli grafik usullaridan foydalangan holda qayta ishlash va kelajakda hujjatlarning qaysi qismlarini to'ldirilishi kerakligini to'g'ri baholashga imkon beradi.

Yurtimiz insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan ilk hududlaridan biri bo'lib bu yerdan qadimgi odamlarning makonlari topilgan bular tarixiy yodgorliklar, arxeologik topilmalar, qoyatosh suratlati bolib ular bizga boy tariximiz haqida hikoya qiluvchi isbot talab qilmaydigan dalildir. Anashunday noyob yodgorliklardan biri azim Toshkentning Bostonliq tumaniga qarashli Xojakent qishlog'idagi suratlaridir. Ushbu yodgorlik poytaxtdan 70 km shimoliy sharqda Bo'stonliq tumanida Chotqol tog'larining g'arbiy yon bag'irlarida va Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Atrofi tog'lar bilan o'ralgan bu mo'jazgina qishloq tabiyatining hush manzaraligi, havosining tozaligi bilan sayohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Hudud nafaqat bugungi kunda balki o'tmishda ham insonlar yashashi uchun qulay joy bolganini biz arxeologik izlanishlar orqali bilishimiz mumkun.

O'zbekistonda hozirgi kungacha 60 dan ortiq qoyatosh rasmlari joylari topilgan. Shunday qoya tosh rasmlarini eng ko'zga ko'ringa joylaridan bittasi mana shu Xojikent qoyatoshlardagi rasmlar hisoblanadi. Bu yerda eng qadimiy odamlar tabiatning

go‘zaligiga qarab bu yerga kelib joylashishgan va o‘zlaridan bu yerda tarixiy izlar qoldirishgan.

Inson jonzoqlar orasidagi eng onli mavjudotdir. Unga yaratgan tomonidan aql, zehn, fahm farosat, bilim berilgan bo‘lib, yangi kashftiyotlar qilish uchun izlanish, yaratuvchanlikka bo‘lgan intilish faqat unga xos. Inson aql-zakovatining ilk mojizalaridan biri bo‘lmish tasviriy san‘at, uning uchun ilohiy nemat bo‘lib u shunday qudratga egaki, hatto ovosiz, harakatsiz, so‘zsiz faqat chizgilat orqali butun bir voqealikka ifodalab beradi. Ma‘lumotlarga ko‘ra unig paydo bo‘lishiga qadimgi tosh asrning so‘ngi bosqichida miloddan 100, 40 ming yilliklarga borib taqaladi. Xususan, ular g‘orlarning devorlariga, qoya toshlarga, hayvon suyaklariga ishlangan turli uslubdagi chizgilardir. O‘rta osiyoda bu hodisa sal keyinroq yani “Mezalit” o‘rta tosh asridan boshlanadi, Mamlakatimizda ular asosan dastlabki makonlar hisoblanga tog‘ va ungurlarda keng tarqalgan. Ularni o‘rganish yurtimiz olimlari tomonidan asosan o‘tgan asrning 30 yillaridan boshlangan. Ajdodlarimiz qoldirgan bu yodgorliklar tarixchilar, arxeologlar uchun noyob topilmalar bo‘lib, 1-dan o‘tmishimiz haqida so‘zlovchi isbot talab qilmaydigan tirik guvoh bo‘lsa, 2-dan bazi bir chigal masalalarni hal etishda qimmatbaho manba vazifasini o‘taydi.

Bu yerda 1956-1957 yillarda Qozog‘istonlik arxeolog Xasan Alpisboy arxeologik ishlarni olib borayotgan paytida odamlardan eshitadiki ”Ali payg‘ambar keganu Ali payg‘amlarni duldul otining izlari bor” qoyalarda. U kishi hayron bo‘lib tik qoyalarda qanday izlar bolishi mumkun deb bu yerga kelib ko‘rib manashu rasmlarni ko‘rgan paytida ko‘zlari arxarlarning shoxlariga tushadi. Arxarlar, echkilat, bir qancha odamlarning rasmlari yoki bo‘lmasa tuya, ho‘kizlarning rasmlarin borliklarini ko‘rgan.

Bu yerga bir qancha arxeologlar kelib organishadi. Z. Shaski, D. Kabirov kelib o‘rganadi. 80 yillarda Muhiddin Xo‘janazarov kelib o‘rgandi. Uning o‘rganishlari natijasida bu yerda 93 dan ortiq rasm borligi ma‘lum bo‘ldi. Bu rasmlar odam bo‘yidan uncha uzoq bo‘lmagan balandlikda joylashgan. Bu yer qadimgi odamlarning sig‘inadigan joyi bo‘lib kelgan. Ular kelib shu toshlarga sig‘inishgan. Anashu ibodatlar orqasida mana shu rasmlar chizilganligini ko‘rishimiz mumkun. Shunigdek tabiyat hodisalari bilan yoki yoz kunlari yuqoridan oqib tushuvchi suvning tasirida mana shunday silliq holga kelgan degan fikirlar ham mavjud. Muhimi bu yodgorliklar uzoq yillar davomida tabiyatning turli injiqliklariga dosh berib kelgan. 80 yillarda bu yerlar qop-qora edi odamla kelib qo‘llari bilan siypashlari natijasida bular juda ham yaltiroq bo‘lib ko‘rinardi. Bu rasmlar chizilishdan oldin buni konturi qattiq toshlar bilan chizib chiqilgan undan keyin siypalash natijasida oyilgan holga keltirilgan va ular bazi bir joylarda 1,5 sm chuqurlikda bor asta-asta davrlar o‘tishi natijasida qadimgi ajdodlarimiz davom etirgan an-analar ya’ni sig‘inish ibodat qilish hollarini shu yerda davom etirishgan.

Qoya tikka bo‘lib balandligi 12,5 metr rasmlar chizilgan joyning uzunligi esa 18 metrni tashkil etadi. Rasmlar asosan qoyaning pastida odam bo‘yi yetadigan qismida joylashgan. Ular yillar davomida tabiiy ofatlat, turli xil e‘tiborsizliklar tufayli bir muncha zarar ko‘rgan lekin sinchikov mutahasislarning mashaqatli mehnati tufayli bugungi kunda ular haqida batafsil ma‘lumotlarga ega bo‘lib turibmiz. Yodgorlikning qimmatli shundaki bitta yodgorlik bir necha davrlarni o‘z ichiga olinadi. Jumladan uning eng qadimgi qatlami yuqorida aytilganidek miloddan avvalgi IV-III ming yillik keyingisi miloddan avvalgi II ming yillik yana biri miloddan avvalgi I ming yillikga to‘g‘ri keladi. Shunisi qiziqki rasmlarning ustidan yana suratlar chizilgan bo‘lib ilk va o‘rta asirlarga tegishlidir. Bu esa bu yerda juda uzoq vaqt ajdodlarimizning makoni bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ular orasida uzulishlar bo‘lsada o‘rta asirlardan to XX-asirgacha yani qattiq yer silkinishi natijasida Chirchiq daryosining o‘ng qirg‘og‘iga hozirgi Chorvoq shahri va uning atroflariga ko‘chib o‘tganlar.



Katta tog' echkisi

Ularning ichida eng qadimgi rasm 3 ta ayol kishining suratidir. Chizilgan payti milloddan avvalgi 4-3 mingyilliklarga ya‘ni eneolit, mis, tosh davriga borib taqaladi. Bundan 40 ming yil yoki bo‘lmasa 45 ming yil ilgari san‘at paydo bo‘lgan bo‘lsa ana o‘sha paytda onalarining rasmini chizishga urinishgan. Bunday rasmlarni

Mana bu rasm katta tog‘ echkisining rasmi judayam yorug‘ bo‘lib ko‘rinadi, bu yer katta bo‘lganligi uchun hozirgi zamon odamlari bu yerga kelib buni juda ko‘plab silab siypashgan. Toshlardan urib rasmlarni yangilashga harakat qilishganligi sababli qolgan rasmlarga nisbatan bu rasm yaqqol ko‘rinib turibti. Bu yodgorliklar YunESKO petrogliflarni saqlash ro‘yxatiga kiritish uchun uni oldindan kiritiladigan royxatiga kiritib qoyilgan va bu qoya tosh rasmlari balkim keyingi davrlarda YunESKOning huddi Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga o‘xshab butun dunyo madaniy yodgorliklarni saqlash ro‘yxatiga kiritilar va bu qoya toshlar keyingi avlodlarimizga bizga yetib kelgandek qilib yetkazilar degan fikrdamiz.



3 ta ayol sur'ati

yevropada,yevropa g'orlarida topilganini bilishimiz mumkun. Bizda g'orlarda rasmlar haligacha topilgani yo'q lekin Xojikentga o'xshagan qoyalarda onalarning rasmlarini uchratishimiz mumkun. Hozirda bu rasmlar unchalik ko'rinmaydi kattaligi 30 sm dan ozgina kattaroq. 3ta ona rasmi uning oyoqlari va bel qismi, yelka qismlari va faqatgina bosh qismigacha chizilganu bosh qismi va qollari ko'rsatilmagan. Lekin bu rasmlarning ustiga erkak kishining ham rasmlari chizib ketilgan faqatgina keyingi odamlar 3 ta ona rasmi u rasmga nisbatan oldiroq chizilgan. Bir birini ustiga chizilgan dan korinib turadi va texnikasi turlicha.

3 onaning bittasini qo'lidagina yoyga o'xshagan narsa bor buni. Uni yoy deb yoki bo'lmasa "arfa" cholg'u asbobi deb qabul qilish ham mumkun.

Manbalarni o'qib chiqishimiz natijasida bu onalar, ayollar atrofida ko'plab hayvonlarning rasmlari chizilgan, ularni o'rab turgan hayvonlarning rasmlari ayniqsa tog' kiyiklari, tog' echkilarining rasmlari juda ko'plab chizilgan.

Bunday uslubdagi tasvirlar Markaziy Osiya qoya tosh rasmlari orasida birinchi marta uchrashi. Qoya toshdaga urib chizilgan ayollar rasmlari Azarbayjonning Qobuston yodgorligida ham topilgan. Lakin Qobuston yodgorligida ayollar rasmlari bu ayollarning rasmlariga nisbatan bo'y basti jihatidan ancha keng, ancha baland ular 1metr 1,5metrgacha chizilgan bo'lsada lekin bir-biriga judayam o'xshash. Ana o'shalarga solishtirish natijasida bu ayollarning rasmlari Eneolit davrida yani bizning davrimizdan 4ming 5ming yil ilgari chizilgan degan fikirga kelingan.

Bunday rasmlar ilgari Orta osiyo hududida topilmagan. Bu birinch hudi shunday rasmlar O'zbekiston hududida Xojikentdagina bor xolos. Bu suratlar davri bugungi kunimizdan 6 ming 5 ming yil ilgari chizilgan. Huddi shunga o'xshagan rasmlar boshqa joylardan chiqqan arxeologik yodgorliklarni bazi bir sopol idishlarida ham bor. Bu narsa ayniqsa janubiy Turkmanistonda enyalit davri yodgorliklari sopolga chizilgan va shu jumladan yaqin sharq mamlakatlarida yani hozirgi Eron hududlaridan ham huddi shunday rasmlar topilgan.



Tog' echkilar

Bizda tarixdan malumki Saklar cho‘qi qalpoq kiyib yurishgan va judayam mohir merganlar bo‘lishgan, ana shuning uchun ham bu yerda o‘sha “Sak” davriga hozirgi kunimizdan 2 yarim ming yilgi davrda bo‘ladigan rasmlar ham bu yerga chizilgan. Endi biz aytib o‘tib ketgan rasmlar orasida “Bronza” v “Jiz”davriga taluqli rasmlar ham bor. Demak bu yerda “Eneolit”davri,”Jiz”davri “Sak” davri ilk o‘rta asirlarda,o‘rta asirlarda chizilgan rasmlar bor. Bularning hammasi shu qoya tosh rasmlariga yani ananalar urf odatlari shu yerda davom etayotganini ko‘rsatadi va ular qanchalik tasviriy san’atga qiziqishlarini bildiradi.

Xulosa:Maqolada butun uzluksiz ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan ma’naviy bo‘shliqlarni to‘ldirishda tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvi orqali biz “Tasviriy san’at” va “Tarix” yo‘nalishi ijodiy guruhimiz bilan Xojikent qishlog‘idagi qoya tosh suratlarini o‘rgandik va ularni o‘rnini yoritib beridik. Shuningdek, aqliy kamoloti, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish orqali talabalarni bilim olishga, kasbiy faoliyatga qiziqtirish,tarixiy yodgorliklarni o‘rganishga, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga aniq natijalarga erishish yo‘llari tadqiq qilina. Ta’lim-tarbiya jarayonini hamkorlik tashkil etishda tasviriy san’at va tarix yo‘nalishlari klaster yondashuvi orqali OTMlari professor-o‘qituvchilari va talabalari ilmiy salohiyatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон;
2. Султанов Х.Э., Мирсоатова Л. Амалиётдан куч олаётган билим // —Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар|| халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами. II том. Чирчиқ 2019.446-447 б.
3. Laylo Mirsoatova/ Use of innovative methods in the development of students‘ creative abilities / Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 03 issue 01Pages: 45-49;
4. Laylo Mirsoatova Botir Boltabayevich Baymetov. Oliy pyedagogik ta’limda inson qomatini tasvirlashning nazariyasi va myetodikasi.2020/11 "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8. Страницы 467-475
5. Laylo Mirsoatova Botir Boltabayevich Baymetov. Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education.2020 / 11 "Science and Education" Scientific Journal August 2021 / Volume 2 Issue 8 Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8. Страницы 467- 475
6. Султанов Х.Э., Мирсоатова Л.У. Механизм инновационной деятельности в сфере непрерывного образования // ACADEMIC RESEARCH IN

EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1385. 1240-1247 стр.

7. Султанов Х.Э., Бойназарова Н.Х., Бердиев Д.А., Мирсоатова Л.Ў., Маматкаримова М.Т. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти //Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollaril mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari /may 1-qism CHIRCHIQ – 2022. 613-620 б.

8. Doston Abduvoitovich Berdiyev/ Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish / "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022// Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690;

9. F. Bozorov. Ijodiy to'garaklarda yoshlarni tasviriy san'atdan tavirlash malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi - Science and Education, -2022: 130-136.

10. Imomatova, U. (2022). Mustaqillik tasviriy san'atning ishlab chiqarish tendensiyalari. Fan va ta'lim , 3 (8), 175-182

11. Мирсоатова Лайло Ўткир қизи Тасвирий санъатни ўқитишда кластер ҳамкорлигини йўлга қўйишнинг аҳамияти (Муסיқа ва санъат мактаблари мисолида)// BELARUS, International scientific-online conference, Part 12, March 19th, p:24-27

12. Султанов Хайтбой Эралиевич, Алимова Нодира Шавкат қизи Zamonaviy ta'limda tasviriy san'atni o'qitish muammolari// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 13–18 p.

13. Imomatova U., Nutfullayev M. Tasviriy san'at darslarida yoshlarga o'zbek milliy tasviriy san'atni o'qitishning psixologik asoslari //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities/ -2023: 2(2), - 204-207 б.

14. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). TASVIRIY SAN'ATNING FANLARARO ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI. PEDAGOGS Jurnal, 31(1), 142–148.